

3. Veysgerber Y.L. Yazik i filosofiya // Voprosi yazikoznaniya. – 1993. №2.
4. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. –M.: Shkola: Yaziki russkoy kulturi, 1996. P. 288.
5. Maslova V.V. Lingvokulturologiya v sisteme gumanitarnogo znaniya / Kritika i semiotika. Vip.7. – 2004. P. 238-243.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. M.: Academia, 2001. P. 208.
7. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti.–M.:Shkola “yaziki russkoy kulturi”, 1996 p-222.

NUTQIY ETIKETNING NAZARIY TADQIQ TAMOYILLARI

Hamida JABBOROVA

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning asosiy e'tibori radiomuloqotda xushmuomalalik meyorlariga nisbatan farqlanishiga va voqealanishiga qaratilgan. Boshqa tillar kabi o'zbek tilida ham nutqiy etiket formulalari ya'ni hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarning tuzilishi, vazifasi, semantik xususiyatlari va qo'llash jihatlarining tahlili lisoniy va nutqiy vositalarga ega bo'lgan nafaqat ijtimoiy-ijobiy sub'yektiv ma'no ekanligi balki madaniy mazmun-mohiyat nutqtayi nazaridan qaraladi.

Kalit so'zlar. Nutqiy etiket, nazariy tadqiq tamoyillari, lingvokulturologiya, psixologik makon, leksik ma'no, madaniy component, lisoniy me'yor.

Muayyan madaniyat doirasida nutqiy etiket nazariyasi ijtimoiy harakatlarning vaziyat, hudud va muloqotning kim tomonidan amalga oshirilishiga qarab lingvistik qurilmalardan foydalanishini taxmin qiladi. «Madaniyatlar shaxslararo makonning tegishli miqdori («hududiylik») bo'yicha standartlarda farqlanganidek, xushmuomalalik «psixologik makon»ga mos keladi va bu yerda madaniyatlar ham differensial meyorlarga ega»¹³¹. Albatta, bu hurmat ma'nosini asosiy kategoriyasi sifatida nutqiy etiket formulalarini tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tillarda nutqiy etiket formulasiga ijtimoiy lisoniy hodisa sifatida qaraladi hamda u o'z leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish

¹³¹ Hall, E. T. (1966). The hidden dimension. New York: Doubleday. 256 p.

usullariga ega. Qolaversa, nutqiy etiket formulalarining qo'llanilishida ijtimoiy omil bilan birga lingvomadaniy omillar muhim o'rin tutadi.

Lingvokulturologiya borasida olimlarning fikriga tayanamiz. «...mamlakatga oid madaniy komponentlar (madaniy komponentga ega so'zlar) –madaniyatning o'ziga xos jihatlarini namoyon qiluvchi semantika hisoblanadi»¹³². «Tilshunoslikda bir-biridan farq qiladigan turfa yo'nalishlarning mavjud bo'lishiga qaramay, zamonaviy lingvokulturologiyaning predmeti til va madaniyatning o'zaro ta'sirida shakllanadigan lisoniy belgilarning madaniy semantikasini o'rganishdan iborat. Chunonchi, har bir lisoniy shaxs ayni paytda madaniy shaxs hamdir. Shuning uchun lisoniy belgilar madaniyat «tili» funksiyasini bajarish imkoniyatiga ega. Madaniyat «tili» til egasining milliy-madaniy mentalligini lisoniy qobiliyatda aks etishini ifodalaydi. Bu o'rinda barcha lisoniy meyorlarga rioya qilingan holatlarda ham «madaniy to'siq»ning yuzaga chiqishini ta'kidlash joiz», – deb yozadi¹³³.

N.G. Komlevning ta'kidlashicha, «Leksik ma'no madaniy komponent bilan birga keladi. So'zning qandaydir ichki tarkibi mavjudligini, ya'ni so'z-belgi o'zidan tashqari qandaydir tushunchani anglatishini tan olish bilan bir qatorda, so'z tarkibidagi madaniy komponent individning madaniy muhitiga bog'liqligini ham tan olishimiz shart»¹³⁴.

Anglashiladiki, *ma'noning milliy-madaniy tarkibiy birligi (A.S. Mamontov), madaniy-tarixiy tarkibiy birlik (V.V. Oshepkova), muqobilsiz leksika, fon leksikasi va konnotativ leksika*¹³⁵ haqida gap ketganda, avvalo, milliy-madaniy semali umumiste'mol birliklari nazarda tutiladi, terminlarda ham kuzatiluvchi bu belgi haqida deyarli so'z ochilmaydi.

S.V. Ivanova leksik birliklarga xos lingvomadaniy belgi deganda xalq hayoti, an'analari, urf-odatlari, tarixining tilda ifodalanishi tushunilishini qayd etadi¹³⁶. Bu jihatdan yondashganda, tasviriy san'at hamda dizayn sohasi terminlarida ham xalq urf-

¹³²Томахин Г. Д. Америка через американизмы. М.: Высш. школа, 1982. – С.15.

¹³³Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. 33-b.

¹³⁴Комлев Н. Г. Компоненты содержательной структуры слова. – М., 1969. – С.116.

¹³⁵Ощепкова В. В. Язык и культура Великобритании, США, Канады, Австралии, Новой Зеландии. – М.; СПб., 2004. – С. 95-96.

¹³⁶Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: дисс. ... к. филол. н. –Уфа, 2003. – С. 6-7.

odatlari, an'analarining aks etishi ular da milliy-madaniy belgining mavjudligi haqida gapirish uchun asos bo'la oladi.

Ijobiy xushmuomalalik strategiyasi o'zaro muloqotda qo'llanilib, bunda so'zlovchi yaqinlik va do'stona munosabatni ifodalash uchun o'zining ijobiy yuzini ko'rsatmoqchi bo'ladi va tinglovchini hurmat qilish kerakdek qiziqish bildiradi. Ushbu strategiya odatda bir-birini juda yaxshi biladigan odamlar guruhida uchraydi. Ushbu toifa uchun 15 ta strategiya mavjud, ular:

1. Tinglovchiga e'tiborli bo'lish (uning qiziqishlari, istaklari, ehtiyojlari, tovarlari).
2. Bo'rttirish (qiziqishlarni qabul qilish, tinglovchi bilan uyg'unlik).
3. Tinglovchiga qiziqishni kuchaytirish.
4. Guruh ichidagi identifikatsiya belgilaridan foydalanish.
5. Kelishuvga intilish.
6. Kelishmovchilikdan saqlanish.
7. Umumiy fikrni oldindan taxmin qilish/ko'tarish/tasdiqlash.
8. Hazil qilish.
9. So'zlovchi tinglovchi qiziqishlarini bilishini yoki qiziqishini isbotlash va taxmin qilish.
10. Taklif qilish, va'da berish.
11. Optimistik bo'lish.
12. Munosabatda so'zlovchini ham, tinglovchini ham o'z ichiga olish.
13. Sabablarini keltirish (yoki so'rash).
14. O'zaro munosabatni qabul qilish yoki tasdiqlash.
15. Tinglovchiga sovg'alar berish (buyum, hamdardlik, tushunish, birgalik).

Shunday qilib, nutqiy etiket formulalarini radionutqda qo'llash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Zero, ijtimoiy omilning asosiy belgisi nutq jarayonidir. Bu nutq ishtirokchisi (kasbi, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei va h.k.)ning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va berilayotgan ma'lumot, axborotni qay tarzda yetkazishi bilan ham belgilanadi. Nutqiy etiket nazariyasiga qiziqish uning ijtimoiy-

madaniy o'lchovlarini tan olish hamda ularni muloqot jarayonida qo'llay olishni o'rganish ko'proq tadqiqotlar o'tkazish kerakligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hall E. T. The hidden dimension. New York: Doubleday. 1966.
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
3. Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: дисс. ... к. филол. н. –Уфа, 2003.
4. Комлев Н. Г. Компоненты содержательной структуры слова. – М., 1969.
5. Ощепкова В. В. Язык и культура Великобритании, США, Канады, Австралии, Новой Зеландии. – М.; СПб., 2004.
6. Томахин Г. Д. Америка через американизмы. М.: ВШ, 1982.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MODALLIKNING AXBOROT VA ALOQA TURLARINI IFODALASHI

Zebo YODGOROVA

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Gazetada har qanday uzatilayotgan axborot har doim o'quvchiga voqelikni yoki ish-harakatni qanday vaziyatlarda bo'lgan yoki bo'lishini, boshqacha aytganda, ish-harakatning amalga oshishi real yoki noreal ekanligini izohlashga harakat qiladi. Bunda ma'no munosabatlarning real-noreal tiplari mayl kategoriyalari bilan ifodalanadi.*

Kalit sozlar. *Gazeta matni, ekspressiv baho, leksik-grammatik kategoriya, leksik vositalar, lingvistik kategoriya, mediamatn, modallik, modallik kategoriyasi.*

Modallik kategoriyasini lingvokognitiv va lingvomadaniy aspektlarda o'rganish tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ob'yektiv modallik bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabati (real va noreal, imkoniyat va imkoniyatsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi)ni anglatadi. Grammatik hamda leksik vositalar (*mayl, modal so'z, yuklama, intonatsiya*) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa so'zlovchining aytilayotgan fikr (*ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho*)ga munosabatini ko'rsatadi va so'z tartibi,